

OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI: O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQARO TAJRIBA TAHLILI

Hafizov Diyorbek

hafizovdiyorbek5@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil-sudlov fakulteti 2-kurs C potok talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20265582>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashning huquqiy-mexanizmlarini tahlil etishga bag‘ishlangan. 2019–2024 yillar oralig‘ida qonunchilikka kiritilgan tizimli o‘zgarishlar, jumladan, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun, Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi va 2024-yil oktabrdagi O‘RQ 978-son qonunning mazmuni ochib beriladi. Maqolada Yevropa Kengashining Istanbul Konvensiyasi, Buyuk Britaniya, Ispaniya va Skandinaviya mamlakatlari tajribalari O‘zbekiston modeli bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, professor G‘afur Abdumajidovning jinoyat protsessual huquqi va kriminalistika sohasidagi ilmiy qarashlari oilaviy zo‘ravonlikni huquqiy tartibga solish nuqtayi nazaridan baholanadi. Tadqiqot natijasida qonunchilik rivojlanishining ijobiy dinamikasi qayd etilib, himoya orderi instituti, jabrlanuvchilarning isbotlash yukidan ozod etilishi va sud-huquq tizimining ixtisoslashuvi kabi dolzarb masalalar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, himoya orderi, aybsizlik prezumpsiyasi, Istanbul Konvensiyasi, Jinoyat kodeksi, ixtisoslashgan sudlar, G‘afur Abdumajidov, gender tenglik.

Abstract: This article analyses the legal mechanisms for combating domestic violence in the Republic of Uzbekistan. It examines systemic legislative reforms from 2019 to 2024, including the Law on Protection of Women from Harassment and Violence, Article 1261 of the Criminal Code, and the Law No. ORQ-978 of October 2024. The article provides a comparative analysis of the Council of Europe's Istanbul Convention and the experiences of the United Kingdom, Spain, and Scandinavian countries against Uzbekistan's legal model. The scholarly contributions of Professor G‘afur Abdumajidov in criminal procedural law and forensic science are evaluated in the context of domestic violence regulation. The study identifies positive legislative dynamics and develops recommendations on the protection order institution, victim exemption from burden of proof, and specialisation of the judicial system.

Keywords: domestic violence, protection order, presumption of innocence, Istanbul Convention, criminal code, specialised courts, G‘afur Abdumajidov, gender equality.

KIRISH

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik - bu nafaqat alohida bir oila ichidagi nizo, balki umuminsoniy qadriyatlarni, shaxs sha‘ni va qadr-qimmatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri poymol etuvchi ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda har uch ayoldan biri umr davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchraydi¹. Bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlardan qat‘i nazar, global miqyosda

¹ World Health Organization (WHO). Global and regional estimates of violence against women: prevalence and health effects of intimate partner violence and non-partner sexual violence. — Geneva: WHO, 2013. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241564625>

kuzatilmoqda. O‘zbekiston uchun bu muammo alohida ahamiyat kasb etadi. 2021-yilning yanvaridan noyabrigacha mamlakatda ayollarga nisbatan 36 mingga yaqin zo‘ravonlik holati qayd etilgan bo‘lib, shundan 12 mingdan ortig‘i jismoniy zo‘ravonlik edi². Mazkur raqamlar rasmiy statistikada aks etgan hollar bo‘lib, keng ijtimoiy muammoning yuzaki qatlamini ko‘rsatadi - ko‘pchilik holatlar hech qachon ommaga ma‘lum bo‘lmaydi. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda 2019–2024 yillar mobaynida amalga oshirilgan qonunchilik islohotlarini tizimli tahlil qilish, xalqaro standartlar bilan qiyoslash va professor G‘afur Abdumajidovning jinoyat protsessual huquqi sohasidagi ilmiy merosi prizmasi orqali mavjud muammolarga yechim taklif etishdan iborat.

Oilaviy zo‘ravonlik muammosi xalqaro huquq nazariyasida ko‘p qirrali yondashuv sifatida tadqiq etiladi. R. Dobash va R. Dobash (1979) tadqiqotlarida zo‘ravonlik faqat jismoniy kuch bilan emas, balki nazorat, hukmronlik va majburlashning tizimli mexanizmi sifatida ko‘rib chiqilgan³ Bu yondashuv keyinchalik Yevropa Kengashining Istanbul Konvensiyasida (2011) ham o‘z aksini topgan va zo‘ravonlikning jismoniy, jinsiy, ruhiy va iqtisodiy turlarini alohida-alohida belgilab bergan. O‘zbekiston huquqshunoslik fanida kriminalistika va jinoyat protsessual huquqining asosi sifatida professor G‘afur Abdumajidovning ishlarini alohida ta‘kidlash zarur. Uning 1983-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi - “Jinoyatlarni tergov qilishning qonunchilik tartibga solishini takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti muammolari” - tergov jarayonida qonuniylik tamoyilining ahamiyatini markaziy masala sifatida ko‘targan⁴ Bu ilmiy konsepsiya bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik ishlari uchun ham bevosita tatbiq etiladi: tergov jarayonida jabrlanuvchiga nisbatan ikkilamchi viktimizatsiyaning (secondary victimisation) oldini olish va isbotlash yukini adolatli taqsimlash masalalari ana shu nazariy poydevorga tayanadi.

Oilaviy zo‘ravonlikka nisbatan huquqiy yondashuvlarning evolyutsiyasini o‘rganishda Liz Kelly (1988) taklif etgan “zo‘ravonlik kontinuumi” (continuum of violence) tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi - unda zo‘ravonlik birlamchi bosim shaklidan o‘limga olib keluvchi holatgacha uzluksiz zanjir sifatida ko‘rib chiqiladi⁵ Shu nazariy asos O‘zbekiston qonunchiligida ham zo‘ravonlikning turli shakllarini bir me‘yoriy hujjatda tartibga solish zaruriyatini asoslaydi.

2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ 561-son qonun O‘zbekiston uchun tarixiy voqea bo‘ldi⁶. Amnesty International tashkilotining baholashicha, bu bilan O‘zbekiston Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida Gruziya, Qirg‘iziston, Moldova va Ukrainadan keyin oilaviy zo‘ravonlikni alohida qonuniy jinoyat sifatida belgilagan beshinchi davlatga aylandi⁷. Qonun bir qator muhim

² Amerikaning Ovozi. «O‘zbekistonda 2021 yilning yanvaridan noyabrigacha ayollarga nisbatan 36 mingga yaqin zo‘ravonlik holati qayd etilgan». — 2022 yil 12 aprel. URL: <https://www.amerikaovozi.com/a/7046722.html>

³ Dobash R.E., Dobash R.P. Violence Against Wives: A Case Against the Patriarchy. — New York: Free Press, 1979. — 339 p.

⁴ Abdumajidov G.A. Проблемы теории законодателного регулирования и практики расследования преступлений: Автореф. дис. д-ра юрид. наук. — Moskva, 1983. — S. 6. // Boltaboyev O.R. O‘zbekiston jinoyat-protsessual huquqining tarixiy rivojlanishi // Legal World. — 2025. — № 1. — B. 110–115.

⁵ Kelly L. Surviving Sexual Violence. — Cambridge: Polity Press, 1988. — 264 p.

⁶ O‘zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘RQ-561-son, 2019 yil 2 sentyabr. // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4494709>

⁷ Amnesty International. «O‘zbekiston oiladagi zo‘ravonlikni qonunga alohida jinoyat sifatida kiritgan beshinchi davlatga aylandi». — 2022 yil 6 aprel. URL: <https://www.qalampir.uz/uz/news/-2375-8068>

yangiliklar kiritdi. Birinchidan, zo‘ravonlikning to‘rt shakli - jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy zo‘ravonlik - alohida-alohida belgilab berildi. Ikkinchidan, himoya orderi instituti joriy qilindi: dastlab ichki ishlar idoralari tomonidan 30 kunga beriladigan, keyinchalik sud tomonidan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin bo‘lgan vaqtinchalik himoya chorasi sifatida. Uchinchidan, oila va xotin-qizlar qo‘mitasiga fuqarolik va ma‘muriy sudlarga davlat bojisiz da‘vo berish huquqi berildi. Biroq qonun ishlab chiquvchilarning oila institutini saqlab qolishga qaratilgan pozitsiyasi - bu ham hujjatda rasmiy qayd etilgan - amaliyotda bir muammo keltirib chiqardi: mansabdor shaxslar ko‘pincha jabrlanuvchini himoya qilish o‘rniga tomonlarni yarashtirishga urindilar. Bu holat G‘.Abdumajidovning ilmiy konsepsiyasidagi asosiy muammolardan biriga - tergov natijalarining siyosiy va ijtimoiy bosimdan himoyalanihi zaruratiga - to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keladi. 2022-yil aprelda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga muhim o‘zgarishlar kiritildi⁸ Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi - oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik - alohida modda sifatida mustahkamlandi. Mazkur modda bo‘yicha jazo choralari quyidagicha belgilandi:

- 1-qism (oddiy holat): 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari, 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish;
- 2-qism (og‘irlashtiruvchi holat): 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish;
- 3-qism (voyaga yetmagan bolaga nisbatan): 5 yildan 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.

Bundan tashqari, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 592-moddasi bo‘yicha oilaviy zo‘ravonlik uchun 3 million so‘mdan 6 million so‘mgacha jarima yoki 15 sutkagacha ma‘muriy qamoq jazosi belgilandi. Muhim yangilik - xuddi shu harakat bir yil ichida qayta sodir etilsa, ma‘muriy emas, jinoiy javobgarlik qo‘llanilishi lozimligi. 2023-yilda ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektorlariga zo‘ravonlik holatlarini bevosita rasmiylashtirishga vakolat berildi. Bu chora amaliyotdagi muhim bo‘shliqni to‘ldirdi: avval jabrlanuvchi o‘zi prokuraturaga murojaat qilishi kerak bo‘lgan, bu esa ko‘pincha ijtimoiy bosim yoki qo‘rquv tufayli amalga oshmay qolardi. 2024-yil 22-oktyabrda imzolangan O‘RQ 978-son qonun - “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun - qonunchilik rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi⁹. Bu qonungacha amaldagi qonunchilikda jiddiy bo‘shliq mavjud edi, Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik kodeksining tegishli moddalarida oilaviy zo‘ravonlikning qurboni sifatida er-xotin, sobiq er-xotin yoki birga yashovchi shaxslar nazarda tutilgan, ammo bolalar bu doiraga kirmay qolgan edi. Natijada bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik holatlarini jinoyat sifatida malakalashtirish qiyinlashardi. Yangi qonun bilan Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik kodeksiga bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik sodir etganlik uchun alohida javobgarlik kiritildi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddasiga muhim qo‘shimcha kiritildi, “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlar yuzasidan yarashuv to‘g‘risidagi

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 126(1)-modda. 1994 yil 22 sentyabr (2022 yilgi tahrirda). URL: <https://lex.uz/docs/-111453> // Jinoyatga aylangan «oilaviy zo‘ravonlik». Kun.uz, 2022. URL: <https://kun.uz/80197808>

⁹ O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-978-son Qonuni «Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida», 2024 yil 22 oktabr. URL: <https://lex.uz/docs/-7165389>

ariza sud muhokamasi bosqichida berilishi mumkin” degan yangi norm joriy etildi¹⁰. Bu chora jabrlanuvchilarga tergov bosqichida zo‘ravon tomonidan bosim o‘tkazilishining oldini olishga qaratilgan - G‘.Abdumajidovning aybsizlik prezumpsiyasi va tergov jarayonida tomonlarning tengligini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy pozitsiyasi bilan uyg‘un keluvchi yondashuv. Professor G‘.Abdumajidovning ilmiy-pedagogik faoliyati bevosita oilaviy zo‘ravonlikni tartibga solish bilan shug‘ullanmagan bo‘lsa-da, uning tergov amaliyotidagi qonuniylik va jabrlanuvchi huquqlari bo‘yicha ishlab chiqqan nazariy konsepsiyalari bu soha uchun metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Birinchidan, G‘.Abdumajidov tergov faoliyatini davrlashtirish metodologiyasida har bir davrning o‘ziga xos huquqiy kafolatlari bo‘lishini ta‘kidlagan¹¹. Oilaviy zo‘ravonlik ishlarida bu ayniqsa muhim, hodisaning dastlabki soatlarida himoya orderi berish, jabrlanuvchini xavfsiz joyga joylashtirish, dalillarni muhofaza qilish kabi operativ choralar aniq huquqiy asosga ega bo‘lmasa, keyingi bosqichlardagi huquqiy himoya samarasiz bo‘lib qoladi.

Ikkinchidan, olimning dalillarni baholash va qonuniylik tamoyili bo‘yicha ishlangan metodologiyasi oilaviy zo‘ravonlik ishlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu toifadagi ishlarda asosiy muammo - dalillarning yo‘qligi yoki kam bo‘lishidir, zo‘ravonlik ko‘pincha yopiq muhitda, guvohsiz sodir etiladi, jabrlanuvchi esa qo‘rquv yoki qaramlik tufayli guvohlik berishdan bosh tortishi mumkin. Shu vaziyatda G‘.Abdumajidovning protsessual huquq bo‘yicha ilmiy risolalari - jumladan, “Kriminalistika” darsliklari - tergov organlari uchun dolzarb metodologik manba bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, G‘.Abdumajidovning “Paxta ishi” davridagi faoliyati - aybsizlik prezumpsiyasi poymol etilgan sharoitda ilmiy-huquqiy murojaatlar uyushtirganligi va SSSR Oliy sudi byulletenida e‘lon qilingan xulosalar¹² - oilaviy zo‘ravonlik ishlari kontekstida ham qimmatli metodologik saboq beradi. Tizimli bosim va noaniqlik sharoitida ham huquqiy talablarni ilmiy asosda himoya qilish mumkin. Bugungi kunda oilaviy zo‘ravonlik jabrlanuvchilari ko‘pincha xuddi shunday “tizimli bosim” bilan - ijtimoiy muhit, huquqiy savodsizlik va institutlarga past ishonch ko‘rinishida - yuzlashadi.

Yevropa Kengashining 2011-yil 11-mayda Istanbulda imzolangan Konvensiyasi - “Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va uy zo‘ravonligining oldini olish va unga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiya - bugungi kunda xalqaro standartlarning poydevori hisoblanadi¹³. Hujjat to‘rt ustunga tayanadi, profilaktika (xabardorlikni oshirish, mutaxassislarni o‘qitish); himoya (cheklov orderlari, xavfsiz uy-joy); jabrlanuvchi huquqlari (takroriy viktimizatsiyaning oldini olish, axborot huquqi); muvofiqlashtirish (organlar orasidagi hamkorlik). Konvensiyaning GREVIO (Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi harakat bo‘yicha ekspertlar guruhi) mexanizmi - mustaqil monitoring tashkiloti sifatida - ishtirok etuvchi davlatlar qonunchiligining bajarilishini tekshiradi¹⁴. O‘zbekiston Istanbul Konvensiyasini imzolagan yoki

¹⁰ Darakchi.uz. «Bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilandi». — 2024 yil 22 oktabr. URL: <https://darakchi.uz/oz/191598>

¹¹ Boltaboyev O.R. O‘zbekiston jinoyat-protsessual huquqining tarixiy rivojlanishi // Legal World. — 2025. — № 1. — B. 112.

¹² Buxdu.uz muzey: Sharof Rashidov va Paxta ishi [II zal, 10-bo‘lim]. URL: <https://buxdu.uz/166-muzey/8225/>

¹³ Council of Europe. Convention on preventing and combating violence against women and domestic violence (Istanbul Convention). — CETS No.210, 11 May 2011. URL: <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention>

¹⁴ House of Lords Library. Istanbul Convention: Preventing and combating violence against women and domestic violence. — 2022. URL: <https://lordslibrary.parliament.uk/istanbul-convention>

ratifikatsiya qilgan davlatlar ro'yxatida yo'q, ammo mamlakat 2024-yilda oilaviy zo'ravonlik sohasidagi bir qator chora-tadbirlar bilan Konvensiya ruhiga yaqinlashdi.

Buyuk Britaniyada oilaviy muhit jinoyatni og'irlashtiruvchi holat sifatida qonunchilikka kiritilgan. Sudlarning hukm chiqarish uchun yo'riqnomasiga 2006-yilda maxsus band qo'shildi, agar zo'ravonlik oila ichida sodir etilgan bo'lsa, jazo standart holatga nisbatan og'irroq bo'lishi kerak¹⁵. Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada politsiya gumon qilinuvchini 48 soatga oila xonadonidan olib chiqish huquqiga ega - bu jabrlanuvchini darhol xavfdan himoya qiluvchi vaqtinchalik chora. Ushbu mexanizm O'zbekistondagi himoya orderi instituti bilan mazmun jihatidan o'xshash, ammo amaliy qo'llanilish samaradorligi va qonunchilikdagi mustahkamlik darajasi hali farqlanadi.

Ispaniyada 2004-yilda qabul qilingan “Gender zo'ravonligiga qarshi kompleks himoya to'g'risida”gi organik qonun - Ley Orgánica 1/2004 — gender zo'ravonlikka qarshi kurashda murakkab institusional tizim yaratdi, ixtisoslashgan sudlar, 24 soat ishlaydigan yordam markazlari, jabrlanuvchilarga bepul yuridik yordam, zo'ravon uchun majburiy korreksiya dasturlari¹⁶. Yevropa Kengashining GREVIO hisobotiga ko'ra, Ispaniyada juft zo'ravonlik (intimate partner violence) ishlari bo'yicha sudlanish darajasi 80 foizga yetdi¹⁷. Bu ko'rsatkich samarali isbotlash mexanizmlari, ixtisoslashgan sudyalar va davlat ayblovchilari hamda jabrlanuvchini ikkilamchi viktimizatsiyadan himoya qiluvchi protsessual kafolatlar kompleksining mahsulidir. O'zbekiston uchun Ispaniya modeli ayniqsa dolzarb ko'rinadi, chunki ikki mamlakat ham an'anaviy oilaga yuqori qadriyat beradigan, jabrlanuvchilar ko'pincha ijtimoiy bosim sababli shikoyat qilmaydigan madaniy muhitda faoliyat ko'rsatadi.

Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiyada oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash gender tenglik siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'riladi. Bu mamlakatlarda profilaktika birinchi o'ringa qo'yilgan, maktab dasturlarida gender tenglik bo'yicha saboqlar, er-xotinlar uchun munosabat madaniyatiga oid treninglar, zo'ravon xulq-atvorni o'zgartirishga qaratilgan majburiy korreksiya dasturlari¹⁸. Skandinaviya tajribasida alohida e'tiborga loyiq jihat - zo'ravon bilan yarashuvning jabrlanuvchi uchun majburiy shart hisoblanmasligi. Aksincha, yarashuvni zo'ravon talash huquqsiz - bu O'zbekistonda 2024-yil qonuni bilan kiritilgan yarashuv arizasi faqat sud muhokamasi bosqichida qabul qilinishi qoidasiga konseptual jihatdan mos keladi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka qarshi kurashning huquqiy mexanizmlari 2019–2024 yillar mobaynida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonun, Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi va 2024-yil O'RQ-978-son qonun majmuasi O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi huquqiy asosning mustahkam poydevorini yaratdi. Biroq qonunchilik bilan amaliyot o'rtasidagi farq hali sezilarli, jabrlanuvchilar ko'pincha yordamga murojaat qilmaydi, mansabdor shaxslar esa ba'zan himoya o'rniga yashtirishni ustivor

¹⁵ Xabar.uz. «Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha qonunchilikka doir jahon tajribasiga nazar». URL: <https://xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-oilaviy-zoravonlikka-qarshi>

¹⁶ Spain. Ley Orgánica 1/2004, de 28 de diciembre, de Medidas de Protección Integral contra la Violencia de Género. — BOE núm. 313, 29 December 2004.

¹⁷ GREVIO. First Thematic Evaluation Report on Spain — «Building Trust by Delivering Support, Protection and Justice». — Strasbourg: Council of Europe, November 2024. URL: <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention/spain>

¹⁸ Namangan.sud.uz. «Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash — qonun va sudning ustuvor vazifasi». URL: <https://namangan.sud.uz/uz/oilaviy-zoravonlikka-qarshi-kurash>

ko'radi. Bu muammolar nafaqat qonunchilik islohotini, balki sud tizimining ixtisoslashuvini, isbotlash jarayonini takomillashtirish va ikkilamchi viktimizatsiyaning oldini olishni talab etadi. Professor G'Abdumajidovning tergov qonuniyligi, aybsizlik prezumpsiyasi va protsessual kafolatlar bo'yicha ilmiy merosi oilaviy zo'ravonlik ishlari uchun metodologik asos bo'la oladi. Uning ta'kidlagan prinsipi - tergov jarayonida qonuniylik kafolatlari har bir bosqichda ta'minlanishi kerak - bugungi O'zbekistonda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Istanbul Konvensiyasi, Ispaniya organik qonuni va Skandinaviya modeli ko'rsatadiki, samarali tizim - qonunchilik, ixtisoslashgan sudlar, majburiy korreksiya dasturlari va jabrlanuvchi huquqlarini himoya qiluvchi protsessual kafolatlar - kompleksini talab etadi. O'zbekiston bu yo'lda hali bosib o'tilgan yo'lga nisbatan ancha uzoq masofani bosib o'tishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. World Health Organization (WHO). Global and regional estimates of violence against women: prevalence and health effects of intimate partner violence and non-partner sexual violence. — Geneva: WHO, 2013. URL: <https://www.who.int/publications/i/item/9789241564625>
2. Amerikaning Ovozi. «O'zbekistonda 2021 yilning yanvaridan noyabrigacha ayollarga nisbatan 36 mingga yaqin zo'ravonlik holati qayd etilgan». — 2022 yil 12 aprel. URL: <https://www.amerikaovozi.com/a/7046722.html>
3. Dobash R.E., Dobash R.P. Violence Against Wives: A Case Against the Patriarchy. — New York: Free Press, 1979. — 339 p.
4. Abdumajidov G.A. Проблемы теории закондателного регулированиа i praktiki rassledovaniya prestupleniy: Avtoref. dis. d-ra yurid. nauk. — Moskva, 1983. — S. 6. // Boltaboyev O.R. O'zbekiston jinoyat-protsessual huquqining tarixiy rivojlanishi // Legal World. — 2025. — № 1. — B. 110–115.
5. Kelly L. Surviving Sexual Violence. — Cambridge: Polity Press, 1988. — 264 p.
6. O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-561-son, 2019 yil 2 sentyabr. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/docs/-4494709>
7. Amnesty International. «O'zbekiston oiladagi zo'ravonlikni qonunga alohida jinoyat sifatida kiritgan beshinchi davlatga aylandi». — 2022 yil 6 aprel. URL: <https://www.qalampir.uz/uz/news/-2375-80686>
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 126(1)-modda. 1994 yil 22 sentyabr (2022 yilgi tahrirda). URL: <https://lex.uz/docs/-111453> // Jinoyatga aylangan «oilaviy zo'ravonlik». Kun.uz, 2022. URL: <https://kun.uz/80197808>
9. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-978-son Qonuni «Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida», 2024 yil 22 oktabr. URL: <https://lex.uz/docs/-7165389>
10. Darakchi.uz. «Bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilandi». — 2024 yil 22 oktabr. URL: <https://darakchi.uz/oz/191598>
11. Boltaboyev O.R. O'zbekiston jinoyat-protsessual huquqining tarixiy rivojlanishi // Legal World. — 2025. — № 1. — B. 112.

12. Buxdu.uz muzey: Sharof Rashidov va Paxta ishi [II zal, 10-bo'lim]. URL: <https://buxdu.uz/166-muzey/8225/>
13. Council of Europe. Convention on preventing and combating violence against women and domestic violence (Istanbul Convention). — CETS No.210, 11 May 2011. URL: <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention>
14. House of Lords Library. Istanbul Convention: Preventing and combating violence against women and domestic violence. — 2022. URL: <https://lordslibrary.parliament.uk/istanbul-convention>
15. Xabar.uz. «Oilaviy zo'ravonlik bo'yicha qonunchilikka doir jahon tajribasiga nazar». URL: <https://xabar.uz/uz/huquq/ozbekistonda-oilaviy-zoravonlikka-qarshi>
16. Spain. Ley Orgánica 1/2004, de 28 de diciembre, de Medidas de Protección Integral contra la Violencia de Género. — BOE núm. 313, 29 December 2004.
17. GREVIO. First Thematic Evaluation Report on Spain — «Building Trust by Delivering Support, Protection and Justice». — Strasbourg: Council of Europe, November 2024. URL: <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention/spain>
18. Namangan.sud.uz. «Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash — qonun va sudning ustuvor vazifasi». URL: <https://namangan.sud.uz/uz/oilaviy-zoravonlikka-qarshi-kurash>